TASDIQLAYMAN
"Autosanoat Agro Lizing"
MChJ bosh direktori

_____ O.S.Sayfullayev

"Autosanoat Agro Lizing" MChJ hay'at
Majlisining BAYONNOMASI

Sana: 2026-yil "10" iyun

Joy: "Autosanoat Agro Lizing" MChJ bosh ofisi.

Ishtirokchilar:

Majlis raisi: O.S.Sayfullayev - "Autosanoat Agro Lizing" MChJ Bosh direktori

Majlis ishtirokchilari:

S.M. Maksumov - Bosh direktor o'rinbosari
I.Z. Mirazimov – Moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari
Sh.N. Rajabov - Yuridik bo'limi boshlig'i
U.I. Sultanboyev - Komplayens xizmati bo'yicha bosh mutaxassis
S.R. Atamatova - Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassis
F.K. Muxamedov - Majlis kotibi
Jamiyatning barca xodimlari

KUN TARTIBI:

1-masala: Jamiyat Bosh direktori Sayfullayev Odilxon Sobitxon o'g'lining korrupsiyaga qarshi murojaatini xodimlarga yetkazish;

2-masala: Komplayens xizmati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar;

3-masala: Axloq kodeksi va xodimlar o'rtasida halollik madaniyatini kuchaytirish choralari;

4-masala: Jamiyat asosiy faoliyatiga oid boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

Jamiyat Bosh direktori O.Sayfullayev majlisni ochib, **1-masala** bo'yicha jamiyat xodimlariga yo'llangan murojaatning mazmunini o'qib eshittirdi. Murojaatda, korrupsiya ishonchni yo'qotadigan, jamoa ishlarini buzadigan va jamiyat faoliyati natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy muammo hisoblanishi, jamiyat o'z faoliyatida doimo shaffoflik va halollik tamoyillariga amal qilishi zarurligi, adolatli, xavfsiz va samarali ish muhitini yaratish har bir xodimning

mas'uliyati ekanligi, ichki nazorat tizimini samaradorligini oshirish ustida faol ish olib borilayotganligi ta'kidlandi. Barcha xodimlardan Axloq kodeksiga rioya qilish, qonun qoidalarga hurmat bilan yondashish va shubhali harakatlar haqida o'z vaqtida xabar berish talab etilishi eslatib o'tildi.

Bosh direktor korrupsiya bilan bog'liq savollar yoki xavotirlar bo'lsa, Komplayens xizmatiga yoki to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish imkoniyati mavjudligini, barcha xabarlar maxfiy ravishda ko'rib chiqilishini alohida qayd etdi.

2-masala bo'yicha Komplayens xizmati bo'yicha bosh mutaxassis U.Sultanboyev so'zga chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan siyosat va nizomlarni Hukumat tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlar asosida jamiyatning mavjud ichki me'yoriy hujjatlarini yangilash, xodimlar tomonidan domiy ravishda o'rganib borilishi va amal qilinishi zarurligini ta'kidladi.

Majlisda Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassis S.R. Atamatova so'zga chiqib, yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun "Etika va antikorrupsiya" mavzusida o'quv treninglar o'tkazib borilishi va muntazam qayta tayyorlov treninglarini tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Shuningdek, majlisda yuridik bo'lim boshlig'i Sh.Rajabov so'zga chiqib, Jamiyat faoliyati uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarga Hukumat tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlar asosida tegishli o'zgartirishlar kiritilishi zarurligini ta'kidladi va xodimlar tomonidan ish faoliyatida mazkur ichki hujjatlarda qayd qilingan talablarga qat'iy ravishda amal qilinishi lozimligini yetkazish maqsadida seminarlar o'tkazilishi taklifini berdi.

3-masala bo'yicha Jamiyat Bosh direktori O.Sayfullayev so'z olib:

Bosh direktor murojaatida ilgari surilgan prinsiplarga muvofiq barcha bo'lim rahbarlariga bo'limlar xodimlariga axborot-tushuntirish ishlari o'tkazilishi topshirildi va ularga har bir bo'limda xodimlar bilan suhbatlar tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi.

Komplayens xizmati bo'yicha bosh mutaxasisga korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida Hukumat tomonidan qabul qilingan qonuniy hujjatlar asosida jamiyatning mavjud ichki me'yoriy hujjatlarini yangilash yuklatildi.

Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassisga yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlar uchun majburiy axloqiy yo'l-yo'riq treninglarini joriy etish, barcha xodimlar uchun yillik qayta tayyorlov dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berildi.

Yuridik bo'limga Ichki me'yoriy hujjatlarni zamonaviy talablarga muvofiq qayta ko'rib chiqish, xodimlar uchun huquqiy savodxonlik seminarlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi.

4-masala bo'yicha Majlis ishtirokchilari, Lizing oluvchilardan lizing to'lovlarini undirish va lizing paketini oshirish bo'yicha jamiyat rahbariyatining topshiriqlarini so'zsiz bajarishni ta'minlash va boshqa joriy masalalarni muhokama qildilar.

YAKUNIY XULOSA:

Majlis ishtirokchilari Bosh direktorning korrupsiyaga qarshi murojaatini to'liq qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar hamda "Autosanoat Agro Lizing" MChJda halollik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini yanada mustahkamlashga kelishib oldilar.

Jamiyatning muvaffaqiyatli kelajagi barcha xodimlarning birgalikdagi say-harakatlariga bog'liqligi ta'kidlandi. Faqat halollik, shaffoflik va professionallik tamoyillari asosida kompaniyaning barqaror rivojlanishiga erishish mumkinligi alohida qayd etildi.

Majlis kotibi F.K. Muxamedov